



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI TURIZM VOSITASI ORQALI MA'NAVIY-AHLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Ravshanqulova D.R.

O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Tayanch so'zlar: ekskursiya, sayohat, turizm, turizmining vazifalari, dam olish, sayohat talablari.

Ключевые слова: экскурсия, путешествие, туризм, задачи туризма, рекреация, требования к путешествию.

Key words: excursion, travel, tourism, tasks of tourism, recreation, travel requirements.

Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida har bir fuqaroga davlat tomonidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kasbga o'qitishga ko'maklashish ikki barobar oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30%ga yetkazish, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67%dan 80%ga yetkazish, maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'lim tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish, 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalga joriy etish, o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich oshirib borish, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish kabi masalalar o'z aksini topgan. Bu ustuvor vazifalarni jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrga ega bo'lgan kadrlargina amalga oshira oladi. Shu bois, taraqqiyot strategiyasida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirishga alohida e'tibor qaratilganligi bejiz emas. Shuni ta'kidlash lozimki, jismoniy sifatlarni shakllantirishda turizm sohasi muhim ahamiyat kasb etadi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri-bu turizmdir”.

Turizm qadimdan xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik aloqalarini mustahkamlashga, savdo-sotiqni rivojlantirishga, ma’naviy-ma’rifiy sohalarni o‘rganishga xizmat qilgan. Turizm yoshlarda vatanparvarlik, milliy tariximizga hurmat, ona-tabiatimizni avaylab asrash, mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, yurtga daxldorlik, aziz avliyolarning o‘gitlarini o‘rganish ularda insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Bir so‘z bilan aytganda, jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Turizm sayohat sifatida dam olish, xordiq chiqarish, tabiat manzaralarini tomosha qilish, tarixiy-madaniy obidalarni ko‘rish, o‘rganish kabi faoliyatlarning mazmun va shakllaridan iboratdir. Bunda eng avvalo ma’naviy-ma’rifiy bilimlarni kengaytirish va jismoniy kamolotni tarbiyalashdek eng murakkab hamda ulug‘vor maqsadlar amalga oshiriladi. [1.5].

Turizm insonning bolalik davrlaridan boshlab uni o‘ziga jalb qiladi. Har bir ota-ona o‘z farzandlariga bolaligidanoq toza, sof havodan to‘yib nafas olish, muayyan iqlim sharoitlariga o‘rgatish, asta-sekin past-baland joylardan o‘tish, tabiiy go‘zalliklar bilan tanishtirish uchun tabiat qo‘yniga sayrga olib chiqadi. Keyinchalik maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham boshqa tarbiya vositalari bilan birgalikda sayr-sayohat qilish kabi usullardan foydalaniladi. Aniqrog‘i “Ilk qadam” davlat dasturi asosida guruhlar yo‘nalishida turli ekskursiyalar, sayohatlar tashkil etishadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari bilan ekskursiya va sayohatlar tashkil etish sinfda va maktabdan tashqari tadbirlar rejasidan keng o‘rin olgan. O‘quvchilar dam olish va bayram kunlari sayohat qilishi, madaniy hordiq chiqarishi maqsadida tabiat qo‘yniga, tarixiy obidalariga, muqaddas qadamjollarga sayohatlar uyushtiriladi. Shuningdek umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etilgan to‘garaklar orqali ham o‘quvchi-yoshlar ongida respublikamizning moddiy va ma’naviy boyliklariga hurmati shakllantiriladi, ularni avaylab asrash, to‘g‘ri foydalanish, o‘quvchilarda ona-Vatanga sadoqat, yurtimizga daxldorlik tuyg‘usi kabi insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Turizm sayohat demakdir. [2.4]. Manbalarda sport turizmining turlari quyidagicha ko‘rsatib o‘tilgan:

- piyoda yurish-sayyohlik yo‘nalishida harakatlanish asosan piyoda amalga oshiriladi.
- changi turizmi - sayyohlik yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanish asosan chang‘ida amalga oshiriladi.

- Tog‘ turizmi - baland tog‘larda piyoda yurish.
- suv turizmi - odatda tog‘li hududlarda rafting vositalarida (kemalarda) daryolar bo‘ylab rafting.
- speleo turizm - yer osti bo‘shliqlari (g‘orlar, g‘or tizimlari, shu jumladan qisman suv bosgan) bo‘ylab sayohat.
- yelkanli turizm - dengizda yoki yirik ko‘llarning suv zonalarida suzib yuruvchi kemalarda sayohat.
- transport vositalarida - velosiped turizmi, ot sporti turizmi va avtomobil turizmini o‘z ichiga olgan bo‘lim.
- estrodiol turizm - turizmning har xil turlari elementlarini birlashtirgan sayohatlar.
- Mototsikl turizmi mototsikl transport vositasi sifatida xizmat qiladigan turizm turlaridan biridir.

Yoshi va ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra sport turizmi quyidagilarga bo‘linadi:

- bolalar turizmi;
- yoshlar turizmi;
- kattalar turizmi;
- oilaviy turizm;
- nogironlar uchun turizm .

So‘nggi yillarda sport turizmining quyidagi yo‘nalishlari faol rivojlandi:

- sayohat (shu jumladan yakka sayohat);
- ekstremal turizm;
- intizom masofasi;
- sun‘iy yerlarda bino ichida intizom masofasi;
- sport sayohatlari sinfida qisqa marshrutlar.

Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarida sayr-sayohatlar mustaqil soha darajasida (maxsus darslar) o‘tkazilmasada, lekin o‘yinlar, estafetalar, yugurish jarayonlarida sayr-sayohatlar haqida tushunchalar berib borish ko‘zda tutiladi. O‘quv yili davomidagi kuzgi, qishki, bahorgi va yozgi ta‘til paytlari va bayramlar, ulug‘ sanalarga bag‘ishlab bir kunlik (dam olish kuni) va darsdan keyingi paytlarda sayr-sayohatlar tashkil qilinishi an‘anaga aylangan. Shu bilan birgalikda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarining mezon (normativ) talablari asosida o‘quv yilida 1-2 marotaba 4-5 km masofalik yo‘nalishda bo‘lgan joylarga piyoda yurish sayohatlari o‘tkaziladi.

Sayohat va turizm (travel and tourism) - bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ular inson hayoti faoliyatining ma‘lum bir tarzini ifodalaydi. [3.52].

- Sayr taassurotlari haqida suhbat, oila va maktabdoshlari, qo‘shnilar bilan suhbatlarda sayrlar haqida savol-javoblar qilish. O‘z taassurotlarini aniq, qisqa va ravon qilib hikoya qilishga o‘rgatish.

2. Sayohatlar haqida:

- Darsdan keyin, dam olish va bayram kunlaridagi sayohatlar haqida suhbatlar o‘tkazish;
- Sayohat joylarining nomi, tarixi va borish yo‘llari haqida ma’lumotlar berish;
- Yurish-turish qoidalari, atrof-muhitni (tabiat manzaralari) kuzatish, taassurotlarni so‘zlab berish kabi amaliy faoliyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiyaviy jarayonlarni bolalarga o‘rgatish;
- Manzilga borish-qaytish (kamida 3-5 km) jarayonlarida qisqa dam olish, o‘yin mashqlar o‘tkazish (avvaldan ishlab chiqilgan va o‘quvchilar istagi asosida);
- Sayohatlarda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni ma’naviy jihatdan baholash. Salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarga tanbeh ogohlantirish, o‘z nuqsonlari va ayblariga iqror bo‘lishga erishish;
- Bir kunlik sayohatlar yakuni haqida sinf yig‘ilishida maktab rahbarlari, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari, ota-onalar va mahalla faollarining ishtirokini ta’minlash;
- Boshlang‘ich sinflarning umumiy yig‘ilishlarida sayohatlar haqida axborotlar berib borish;
- Maktab devoriy gazetalari, videotasvir namoyish qilish va kompyuter xonalarida tasvirga olingan sayohatlarni yoritish, namoyish qilish.

Shu bilan birgalikda, o‘quv amaliyotlari jarayonlarida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan o‘qituvchi va sinf rahbari timsolida (sifatida) darsdan keyin va dam olish kunlari qisqa masofalarga sayr-sayohatlar tashkil qilishni amalda sinab ko‘rishlari lozim. Buning uchun esa sinf rahbarlari, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari bilan kelishgan holda ish olib borishlari lozim. Ayniqsa yosh bolalarning shaxsiy xususiyatlari, ruhiy holatlari, jismoniy tayyorgarliklarini yaxshi bilish, ularning ko‘p qirrali savollariga aniq, to‘g‘ri javob berishiga doim tayyor bo‘lish talab etiladi.

Bugungi yosh bola ertangi kunda o‘quvchi, keyin talaba va bora-bora yetuk mutaxassis bo‘ladj. Bu oraliqda ta’lim-tarbiyaning ravon yo‘llari va ko‘p qirrali to‘siqlariga duch keladi. Ulardan dadil o‘tish uchun jismonan barkamol va fanlarda iqtidorli, bilimdon bo‘lish kerak bo‘ladi. Bu jarayonlarni boshlang‘ich sintlarda shakllantirish, barcha faoliyatlarni his qilish tuyg‘ularini tarbiyalashda



sayr-sayohatlarning o'ziga xos fazilatlari, xususiyatlarini bilib olish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. E. Yu. Daurenov va S.R. Daurenova. Turizm. – T.: Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti nashriyoti. 2011.-188 b.
2. T. Xoldarov, X.Tulenova. Turizm. Sayyohlik. – T.: Iqtisod-Moliya. 2016 .-144 b.
3. M. Mirzayev, M. Aliyeva. Turizm asoslari. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011.- 288 b.
4. Ye.Yu. Daurenov, S.R. Daurenova. Turizm. – T.: O'zDJTI nashriyoti, 2010. – 217 b.
5. I. Tuxliyev, B. Safarov. Turizm asoslari.- T.: Yangi nashr, 2012. - 151 b.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni turizm vositasida ma'naviy-ahloqiy sifatlarini rivojlantirish haqida fikrlar bayon etilgan. Unda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari bilan ekskursiya va sayohatlar turizmni tashkil qilish va o'tkazishga doir fikr yuritilgan bo'lib, turizmni tashkil etish ahamiyati keng yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены мысли о развитии духовно-нравственных качеств учащихся младшего школьного возраста посредством туризма. На нем обсуждались вопросы организации и проведения экскурсий и поездок с учащимися общеобразовательных школ, широко разъяснялась важность организации туризма.

SUMMARY

In this article, thoughts on the development of the spiritual and moral qualities of students of primary school age through tourism are presented. It discusses the organization and conduct of excursions and trips with students of general secondary schools, and the importance of tourism organization is widely explained.